«IMKONIYATDAN SALOHIYATGA» TAMOYILI ASOSIDA TALABALARNING KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH MODELI

Samiyeva Gulnora Rajabmurodovna
Buxoro xalqaro universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. Mazkur tezisda inklyuziv ta'lim muhitida talabalarning mavjud individual imkoniyatlarini aniqlash, ularni maqsadli rivojlantirish va kasbiy salohiyatga transformatsiyalashga qaratilgan «Imkoniyatdan salohiyatga» tamoyili asosida talabalarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish modeli ilmiy-nazariy jihatdan yoritilgan. Modelning maqsadli, motivatsion-qadriyatli, mazmuniy, texnologik-faoliyatli, refleksiv-boshqaruv va natijaviy komponentlari belgilangan. Shuningdek, modelni amalga oshirish bosqichlari, pedagogik shart-sharoitlari, metod va vositalari hamda kasbiy kompetentlikni baholash mezonlari asoslangan.

Kalit so'zlar: imkoniyat, salohiyat, kasbiy kompetentlik, inklyuziv ta'lim, pedagogik model, individuallashtirish, kasbiy rivojlanish, refleksiya, innovatsion yondashuv.

Аннотация. В данной работе с научно-теоретической точки зрения освещена модель развития профессиональной компетентности студентов на основе принципа «От возможности к потенциалу», направленного на выявление имеющихся индивидуальных возможностей обучающихся в условиях инклюзивной образовательной среды, их целенаправленное развитие и трансформацию в профессиональный потенциал. Определены целевой, мотивационно-ценностный, содержательный, технологически-деятельностный, рефлексивно-управленческий и результативный компоненты модели. Также обоснованы этапы реализации модели, педагогические условия, методы и средства, а также критерии оценки профессиональной компетентности.

Ключевые слова: возможность, потенциал, профессиональная компетентность, инклюзивное образование, педагогическая модель, индивидуализация, профессиональное развитие, рефлексия, инновационный подход.

Abstract. This paper provides a theoretical and scientific description of a model for developing students' professional competence based on the principle of "From Opportunity to Potential", which is aimed at identifying students' existing individual capabilities in an inclusive educational environment, purposefully developing them, and transforming them into professional potential. The model comprises target-oriented, motivational-value, content-related, technological-activity, reflective-management, and outcome-based components. The stages of model implementation,

pedagogical conditions, methods and tools, as well as criteria for assessing professional competence are also substantiated.

Keywords: opportunity, potential, professional competence, inclusive education, pedagogical model, individualization, professional development, reflection, innovative approach.

Kirish. Zamonaviy oliy ta’lim oldida turgan muhim vazifalardan biri mehnat bozori talablariga javob bera oladigan, mustaqil fikrlaydigan, kasbiy muammolarni hal qiladigan, innovatsion yondashuvga ega va o‘z faoliyatini muntazam takomillashtirib boradigan raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlashdir.

Bugungi ta’lim jarayonida talabaning faqat nazariy bilimlarni o‘zlashtirishi yetarli emas. Ushbu bilimlarni kasbiy vaziyatlarda qo‘llash, mustaqil qaror qabul qilish, jamoada ishlash, muammoli vaziyatlarga ijodiy yechim topish va o‘z faoliyati natijalarini tahlil qilish qobiliyati kasbiy kompetentlikning muhim ko‘rsatkichlaridan hisoblanadi. Ayniqsa, inklyuziv ta’lim muhitida talabalarning individual imkoniyatlarini hisobga olish va ularni kasbiy salohiyatga aylantirish alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki inklyuziv muhit nafaqat ta’lim olishdagi to‘siqlarni bartaraf etish, balki har bir talabaning mavjud qobiliyatini namoyon etishi va rivojlanishi uchun imkoniyat yaratishni nazarda tutadi.

Shu nuqtai nazardan, mazkur tadqiqotda «Imkoniyatdan salohiyatga» tamoyili asosida talabalarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish modeli taklif etilmoqda.

«Imkoniyatdan salohiyatga» tamoyilining asosiy mohiyati talabaning mavjud qobiliyatlari, qiziqishlari, individual xususiyatlari va ta’limiy ehtiyojlarini aniqlash hamda ularni maqsadli pedagogik ta’sir asosida kasbiy salohiyatga transformatsiyalashdan iborat. Ushbu tamoyilda «imkoniyat» talabaning mavjud bilim, qobiliyat, qiziqish, tajriba va shaxsiy resurslarini anglatsa, «salohiyat» mazkur imkoniyatlarning kasbiy faoliyatda namoyon bo‘ladigan barqaror kompetensiyalarga aylangan holatini ifodalaydi. Shu asosda jarayon quyidagi mantiqiy zanjirda namoyon bo‘ladi: **Imkoniyat → ehtiyoj → rivojlanish → amaliy faoliyat → refleksiya → kasbiy salohiyat → kompetentlik (1-rasmga qarang).**



1-rasm. Imkoniyat → ehtiyoj → rivojlanish → amaliy faoliyat → refleksiya → kasbiy salohiyat → kompetentlik tizimi

Bunda o‘qituvchining vazifasi tayyor bilimni yetkazish bilan cheklanib qolmaydi. U talabaning individual imkoniyatlarini aniqlaydi, unga mos ta’limiy vazifalarni belgilaydi, kasbiy vaziyatlarni yaratadi va talabaning mustaqil rivojlanishini pedagogik jihatdan qo‘llab-quvvatlaydi.

«Imkoniyatdan salohiyatga» tamoyili asosida ishlab chiqilgan model o‘zaro bog‘liq bir nechta komponentlardan tashkil topadi.

1. Maqsadli komponent

Maqsadli komponentning asosiy maqsadi — talabalarda kasbiy faoliyatni samarali amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan kompetensiyalarni shakllantirish va rivojlantirish. Maqsad quyidagi vazifalar orqali amalga oshiriladi:

-talabalarning individual imkoniyatlarini aniqlash;
-kasbiy qiziqish va motivatsiyani kuchaytirish;
-kasbiy bilimlarni amaliy faoliyat bilan integratsiyalash;
-mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatini rivojlantirish;
-innovatsion va ijodiy faollikni rag‘batlantirish;
-refleksiv ko‘nikmalarni shakllantirish.

2. Motivatsion-qadriyatli komponent

Ushbu komponent talabaning kasbga munosabati, kasbiy maqsadlari, mas’uliyati va o‘zini o‘zi rivojlantirishga bo‘lgan ehtiyojini qamrab oladi. Talabada «Men buni bajara olaman», «Men o‘z imkoniyatlarimni rivojlantira olaman», «Mening kasbiy rivojlanishim o‘z qo‘limda» kabi ichki motivatsion pozitsiyani shakllantirish muhim. Buning uchun kasbiy muvaffaqiyat misollari, motivatsion keyslar, muammoli vaziyatlar, refleksiv savollar va individual rivojlanish maqsadlaridan foydalaniladi.

3. Mazmuniy komponent

Mazmuniy komponent kasbiy bilimlar, inklyuziv ta’lim mazmuni, amaliy ko‘nikmalar, kasbiy qadriyatlar va innovatsion faoliyatni integratsiyalashni nazarda tutadi. Bu yerda nazariy bilimlar alohida maqsad sifatida emas, balki kasbiy vazifani bajarish vositasi sifatida qaraladi. Masalan, talaba muayyan pedagogik nazariyani o‘rganibgina qolmasdan, ushbu nazariyani aniq ta’limiy vaziyatda qo‘llaydi, natijani tahlil qiladi va zarur bo‘lsa, o‘z yondashuvini o‘zgartiradi.

4. Texnologik-faoliyatli komponent

Mazkur komponent modelning amaliy yadrosini tashkil etadi. Talabalarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishda: keys-stadi; muammoli ta’lim; loyihaviy ta’lim; rolli o‘yinlar; pedagogik vaziyatlar; simulyatsion mashg‘ulotlar; differensial topshiriqlar; hamkorlikda o‘qitish; raqamli ta’lim resurslari kabi metod va vositalardan foydalaniladi. Bu jarayonda talabaga tayyor yechimni berish emas, balki muammoni mustaqil aniqlash, tahlil qilish va yechim ishlab chiqish imkoniyati beriladi.

5. Refleksiv-boshqaruv komponenti

Talabaning kasbiy kompetentligi uning o‘z faoliyatini tahlil qila olishi bilan bevosita bog‘liq. Shu sababli model doirasida refleksiya alohida komponent sifatida belgilanadi. Talaba quyidagi savollar asosida o‘z faoliyatini tahlil qiladi: **Nimani o‘rgandim? Nimani bajara oldim? Qaysi vazifada qiynaldim? Muammoni qanday hal qildim? Keyingi bosqichda nimani takomillashtirishim kerak?** Bunday refleksiv yondashuv talabada o‘z-o‘zini baholash va o‘z kasbiy rivojlanishini boshqarish ko‘nikmasini shakllantiradi.

6. Natijaviy komponent

Modelning yakuniy natijasi — talabaning kasbiy kompetentligi rivojlanganligi bilan belgilanadi. Natija quyidagi ko‘rsatkichlarda namoyon bo‘ladi:

- kasbiy bilimlarni amaliyotda qo‘llay olish;
- mustaqil qaror qabul qilish;
- muammoni tahlil qilish;
- kasbiy muloqotga kirishish;
- jamoada ishlash;
- innovatsion yechim ishlab chiqish;
- o‘z faoliyatini baholash;
- mustaqil kasbiy rivojlanish strategiyasini belgilash.

Modelni amalga oshirish bosqichlari

«Imkoniyatdan salohiyatga» modeli to‘rt asosiy bosqichda amalga oshiriladi.

Birinchi bosqich — diagnostik-analitik bosqich.

Talabalarning boshlang‘ich kasbiy kompetentlik darajasi, individual imkoniyatlari, qiziqishlari va ta’limiy ehtiyojlari aniqlanadi.

Diagnostikada test, anketa, suhbat, kuzatish, amaliy topshiriq va o‘z-o‘zini baholash usullaridan foydalaniladi.

Ikkinchi bosqich — individuallashtiruvchi-rivojlantiruvchi bosqich.

Diagnostika natijalariga asoslanib, talabaning individual rivojlanish yo‘nalishi belgilanadi.

Topshiriqlar talabalarning tayyorgarlik darajasiga moslashtiriladi. Bir xil topshiriq o‘rniga turli murakkablikdagi vazifalar taklif etiladi.

Uchinchi bosqich — kasbiy-faoliyatli bosqich.

Talabalar real kasbiy faoliyatga yaqinlashtirilgan vaziyatlar asosida ishlaydilar.

Keyslar, loyihalar, pedagogik vaziyatlar va simulyatsion topshiriqlar orqali talabalarning nazariy bilimlari amaliy kompetensiyaga aylantiriladi.

To‘rtinchi bosqich — refleksiv-natijaviy bosqich.


Talabaning erishgan natijalari baholanadi, kasbiy o‘sish dinamikasi aniqlanadi va keyingi rivojlanish vazifalari belgilanadi.

Bu bosqichda baholash faqat o‘qituvchi tomonidan emas, balki o‘z-o‘zini baholash, o‘zaro baholash va portfolio asosida ham amalga oshiriladi.

Modelning pedagogik shart-sharoitlari. «Imkoniyatdan salohiyatga» modelini samarali amalga oshirish uchun quyidagi pedagogik shart-sharoitlarni ta’minlash zarur:

- birinchidan, **inklyuziv va psixologik xavfsiz ta’lim muhitini yaratish**;
- ikkinchidan, **talabaning individual imkoniyatlarini muntazam diagnostika qilish**;
- uchinchidan, **ta’lim mazmuni va topshiriqlarni individuallashtirish**;
- to‘rtinchidan, **amaliy kasbiy vaziyatlardan foydalanish**;
- beshinchidan, **talabaning mustaqilligi va ijodiy tashabbusini qo‘llab-quvvatlash**;
- oltinchidan, **refleksiv va natijaviy baholash tizimini joriy etish**.

Ushbu shart-sharoitlar bir-biridan alohida emas, balki yaxlit pedagogik tizim sifatida amal qilishi lozim.



muhiti muntazam diagnostikalash

▼

4-BOSQICH
AMALIYOTGA YO'NALTIRISH

▼

Amaliy kasbiy vaziyatlardan foydalanish

▼

5-BOSQICH
SHAXSIY FAOLLIKNI QO'LLAB-QUVVATLASH

▼

Talabaning mustaqilligi va ijodiy tashabbusini qo'llab-quvvatlash

▼

6-BOSQICH
NATIJANI BAHOLASH

▼

Refleksiv va natijaviy baholash tizimi

▼

KASBIY VA SHAXSIY RIVOJLANISH

Kasbiy kompetentlikni baholash mezonlari

Model samaradorligini aniqlash uchun kasbiy kompetentlikni quyidagi mezonlar asosida baholash mumkin (1-jadvalga qarang).

Mezon	**Asosiy ko'rsatkichlar**
Motivatsion	Kasbga qiziqish, o'zini rivojlantirishga intilish
Kognitiv	Kasbiy bilim va ularni qo'llay olish
Amaliy	Kasbiy vazifalarni mustaqil bajarish
Kommunikativ	Muloqot va hamkorlik
Innovatsion	Yangi g'oya va yechimlar ishlab chiqish

Refleksiv	O’z faoliyatini tahlil va baholash

Mazkur mezonlar asosida talabalarning kasbiy kompetentligi reproduktiv, amaliy va ijodiy darajalarda baholanishi mumkin. Reproduktiv darajada talaba asosiy kasbiy bilimlarga ega, ammo ularni yangi vaziyatda qo‘llashda qiynaladi. Amaliy darajada talaba kasbiy bilim va ko‘nikmalarini standart hamda qisman yangi vaziyatlarda mustaqil qo‘llay oladi. Ijodiy darajada esa talaba muammoni mustaqil tahlil qiladi, innovatsion yechim ishlab chiqadi, qarorini asoslaydi va o‘z faoliyatini refleksiv baholaydi.

Modelning innovatsion ahamiyati. «Imkoniyatdan salohiyatga» modelining innovatsionligi, avvalo, ta’lim jarayoni markaziga talabaning mavjud imkoniyatini qo‘yish bilan belgilanadi. An’anaviy yondashuvda ta’lim ko‘proq «bilim berish → o‘zlashtirish → baholash» ketma-ketligida tashkil etilsa, mazkur model: «imkoniyatni aniqlash → ehtiyojni belgilash → individual rivojlantirish → amaliy faoliyat → innovatsion yechim → refleksiya → kasbiy salohiyat» ketma-ketligiga asoslanadi. Shu jihatdan, talaba tayyor ta’lim mazmunini o‘zlashtiruvchi emas, balki o‘z kasbiy rivojlanishini shakllantiruvchi sub’ekt sifatida namoyon bo‘ladi. Modelda o‘qituvchi ham o‘zining an’anaviy «axborot beruvchi» rolidan «fasilitator, konsultant va rivojlanish jarayonining koordinatori» roliga o‘tadi.

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy oliy ta’limda talabalarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishda ularning individual imkoniyatlarini aniqlash va mazkur imkoniyatlarni kasbiy salohiyatga transformatsiyalash muhim pedagogik vazifa hisoblanadi. «Imkoniyatdan salohiyatga» tamoyili ana shu jarayonni tizimli tashkil etish imkonini beradi. Taklif etilgan model maqsadli, motivatsion-qadriyatli, mazmuniy, texnologik-faoliyatli, refleksiv-boshqaruv va natijaviy komponentlarni o‘zaro integratsiyalaydi. Uning asosiy natijasi talabaning kasbiy bilimlarni amaliyotda qo‘llashi, mustaqil qaror qabul qilishi, innovatsion yechimlar ishlab chiqishi va o‘z kasbiy rivojlanishini boshqara olishida namoyon bo‘ladi.

Mazkur yondashuvning asosiy formulasi quyidagicha ifodalanadi: **imkoniyat → rivojlanish → amaliyot → innovasiya → refleksiya → salohiyat → kompetentlik.**

Demak, talabaning har qanday individual imkoniyati to‘g‘ri tashkil etilgan pedagogik muhit, maqsadli metodik ta’sir va amaliy faoliyat orqali kasbiy salohiyatga aylanishi mumkin. Shu ma’noda, «Imkoniyatdan salohiyatga» modeli inklyuziv ta’lim muhitida talabalarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishning istiqbolli pedagogik mexanizmi sifatida qaralishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O’zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonuni.
2. O’zbekiston Respublikasi oliy ta’lim sohasidagi me’yoriy-huquqiy hujjatlar.

3. Zimnyaya I.A. Klyuchevыe kompetensii — novaya paradigma rezultata obrazovaniya.
4. Xutorskoy A.V. Kompetentnostnыy podxod v obuchenii.
5. Selevko G.K. Sovremennыe obrazovatelnыe texnologii.
6. Booth T., Ainscow M. *Index for Inclusion: Developing Learning and Participation in Schools.*
7. UNESCO. *A Guide for Ensuring Inclusion and Equity in Education.*
8. Azizxodjayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat.
9. «IMKON+» avtorlik pedagogik texnologiyasi konsepsiyasi.